
“Tashabbusli byudjet”ning joriy yilgi 2-mavsumida g’oliblar nomi ma’lum

“Tashabbusli byudjet”ning joriy yilgi 2-mavsumi uchun Rishton tumani fuqarolari tomonidan kiritilgan va yakunda eng ko’p ovoz to’plab g’oliblikni qo’lga kiritgan loyihalar bilan tanishing.

1□ “Xurramobod MFY Ma’rifat ko’chasida maktabga qatnovchi bolalar uchun piyodalar yo’lakchasi qurish va Xurramobod MFY ichki yo’llarini ta’irlash.” - 6 ming 347 ta ovoz;

2□ Rishton tumani Voxim MFY hududidagi jami 2700 metr qismini asfaltlashtirish. - 5 ming 463 ta ovoz;

3□ Oqtomir MFY hududida ko’chalarni asfaltlashtirish, maktabga kelish va ketish uchun piyodalar yulakchasini shakllantirish - 5 ming 333 ta ovoz;

4□ Rishton tumani, Mevazor MFYdagi Bahor1 va Milliy tiklanish ko’chasidagi mavjud 3 km masofadagi shag’allashtirilgan ichki yo’llarni asfaltlashtirish" - 4 ming 999 ta ovoz;

5□ “Rishton tuman markaziy shifoxonasi qabul diagnostika bo’limiga UZI 4D, FGDS, Gematologik analizator, IFA analizator va boshqa zaruriy apparatlarni sotib olish - 4 ming 989 ta ovoz;

6□ Xojiqishloq MFYdagi Sobir Raximov ko’chasining 3 km. qismini asfaltlashtirish - 4 ming 957 ta ovoz.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.

2023-09-16 15:31:17